


Bolalar Muqaddas Kitobi
Tasvirlab beradi



Yaxshi va
yomon
podshohlar



...tomonidan yozilgan: Edward Hughes

...tomonidan ilustrasiya qilingan:
Lazarus; Alastair Paterson

...tomonidan o'zgartirishlar kiritilgan:
Ruth Klassen

...tomonidan ishlab chiqarilgan:
Bible for Children www.M1914.org

©2021 Bible for Children, Inc.
Lisenzia: Bu hikoyani chop etishingiz
yoki nusha ko'chirishingiz mumkin.
Lekin u sotilmaydi.




Manashe juda
hafa edi, chunki
uning otasi
podshoh Hizqiyo
vafot etdi. Endi
12 yoshli Manesh
otasining o'rniga
podshoh bo'lishi
kerak edi.




U Xudoning
xalqi Yahudiyani
boshqarishi kerak.
Ammo u o'sha
paytda 55 yil
hukmronlik
qilishi kerakligini
bilmagandi. U
Xudoning yordamiga
muhtoj edi.




Ammo Manashe Xudoni rad etib, ko'p yovuzliklar qildi. U butxonalar qurdi, hatto but yasab, Xudoning muqaddas ibodatxonasiga qo'ydi.



Ammo Xudo bir vaqtlar
Musu orqali shunday amr
bergandi: "Bundan keyin but
yasamasliging va ularga sajda
qilmasliging
kerak!"



Manashe sehrgarlikka ham ruhsat berardi. Shu orqali u juda yovuz ishlar qilardi. Manashning bu ishlari Xudoni qahrini keltrardi.




Agar odamlar Xudoga
itoat etishmasa, Xudo ularni
jazolanishiga yo'l qo'yib
berardi.



Shuning
uchun
Manashe va uning
odamlari ham jazolandi.



Ularni Asiriya qo'shini bosib olishiga
Xudo yo'l qo'yib berdi. Manashe
Bobilga asir qilib olib ketildi.



Bobilda azob
chekkan Manashe
Xudodan kechirim
so'rab, ibodat qildi.
U endi butlarga
sajda qilmas edi.




Ammo Manesh
shuncha yovuzliklar
qilgandan keyin
Xudo unga javob
beradimi?




Albatta, ha! Xudo Manasheni
ibodtlarini eshitdi va uni
Isroilga qaytarib olib keldi.
Manashe yana xalqiga
podshoh bo'ldi.




Podshoh Manashe juda o'zgardi. U barcha butlarni yo'qotib tashladi.



Ibodatxonalarda Xudoga bag'ishlab,
xushbo'y qurbonliklar keltirdi.



So'ng u hamma Xudoga sajda qilishini buyurdi. Manashe ajoyib o'zgarishlar qildi!



Manashe vafot etgandan keyin uning o'g'li Amon yana butlarga sajda qilishni boshladi. Ammo u Manashega o'xshab, vaqti kelganda tavba qilmadi.



Shuning uchun o'z yovuzliklari
tufayli uning xizmatkorlari uni
oldirishdi. Amon faqatgina ikki
yil hukmronlik qildi.



Keyingi podshoh
Yoshua 8 yosh edi. U
31 yil hukmronlik qildi.
Yoshua Xudoga
sajda qilardi. U
barcha butlarni
buzib tashladi,
ularni kulga
aylantirib
yubordi.



Shuningdek podshoh Yoshua
ibodatxonalarini qayta tikladi.
Oliyruhoniy tashlandiqlar
orasidan Qonunlar kitobini
topib oldi.



Bu kitobni o'qigan
podshoh, kiyimini
yirtib tashladi.
Uning ota-bobolari
Xudoga qarshi
ishlar qilganidan
juda qayg'urdi.



Xulda ismli payg'ambar ayol
Yoshuaga Xudoning so'zini etkazdi.




Xudo shunday derdi: "Bu kitobda
yozilga barcha la'natlarni shu
joyga olib kelaman. Chunki
ular Meni rad etishdi.
Ammo Yoshua Menga
itoat etgani

uchun buni
uning vafotidan
so'ng amalga
oshiraman."




Xudo Yoshua hukmronlik qilishga yordam berardi. Bir kuni jangda Yoshua yaralandi. Uning xizmatkori uni Isroildagi uyiga olib keldi.




O'sha yerda Yoshua vafot etdi. Uning odamlari judayam qayg'urishdi va unga atab Yaxshi podshoh nomli qo'shiq yozishdi.






Tez orada
podshohlik
tugadi.
Ammo bir
kuni podshoh
yana Isroil
ustidan
hukmronlik
qiladi.





U Podshohlarning
Podshosi, barcha
podshohlidlarni
Egasi bo'ladi. Iso
Masih birinchi
bor kelganda, U
rad etilib, xochga
mixlangan edi.





Ikkinchi bor
kelganda esa U
faqatgina Isroil
ustidan emas,
balki butun olam
ustidan hukmronlik
qiladi.



Yaxshi va yomon podshohlar

Hikoya Hudo Kalomi Injildan olingan

...dan topilgan

2 Solnomalar 33-36

"Kaloming ochilib qolganda ziyo ochar."

Zabur 119:130



Hikoya tugadi



Bu Kalomdagi Hikoya bizlarga, Hudoning bizlarni ajoyib qilib yaratganligi haqida va biz Uni tanib bilishimiz qanchalik muhim ekanligi haqida hikoya qilib beradi.

Hudo, biz ko'p yomonliklar qilganimizni biladi va U bu Yomonliklarni gunoh deb atadi. Gunohning evazi o'lim lekin Hudo olamni shunchalik sevdiki O'zining Yagona O'g'lini berdi, va U bizning gunohlarimiz uchun hochda o'ldi. U tirilib yana Osmonga ko'tarildi. Unga ishongan kishi halok bo'lmaydi balki abadiy hayotga ega bo'ladi. Agar sis Isoga ishonsangiz, Undan gunohlaringiz uchun kechirim so'rang, U gunoharingizni kechiradi. U sizning yuragingizga kelib yashaydi va siz U bilan abadiy yashaysiz.



Agar siz bu so'zlar haqiqatligiga
ishonsangiz, Hudoga shunday deb ayting:
Qadrli Iso, Men Sening Hudoliginga ishonaman,
Sen yer yuziga kelib mening gunohlarim uchun
o'lding, va Sen yana hozir tiriksan va bir kuni men
sen bilan abadiy bo'laman. Men hozir yangi hayot
bilan yashayman, iltimos mening hayotimga kel,
men Senga itoat qilishim uchun va Sening
frazanding bo'lishim uchun yordam ber.

Muqaddas Kalomni o'qib Hudo bilan har
kuni suhbatlashing! Yuhanno 3:16

